

USTOZGA EHTIROM – MILLATGA EHTIROM

Mashg'ulot maqsadi

O'quvchilarda ustoz shaxsiga hurmat va ehtirom tuyg'usini shakllantirish, ustozning inson kamoloti, yosh avlod tarbiyasi hamda millat kelajagidagi beqiyos o'rnini anglatish; ustozga hurmat aslida **ilm-ma'rifatga, milliy qadriyatlarga, inson qadriga va millat kelajagiga hurmat** ekanini chuqur tushuntirish. O'quvchilarni ustoz mehnatini qadrlash, uning ishonchini oqlash, olgan bilim va tarbiyasini ezgu maqsadlar yo'lida qo'llashga undash hamda ularda minnatdorlik, mas'uliyat, vatanparvarlik va ma'naviy yetuklik fazilatlarini rivojlantirish.

Kutilayotgan natijalar

Mashg'ulot yakunida o'quvchilar ustozning inson kamoloti, yosh avlod tarbiyasi va millat kelajagidagi beqiyos o'rnini anglaydi, ustozga hurmat faqat odob yuzasidan emas, balki **ilm, ma'rifat, tarbiya va milliy qadriyatlarga bo'lgan yuksak ehtirom** ekanini tushunadi. Ustoz mehnatini qadrlash, uning ishonchini oqlash, bergan bilim va tarbiyasini hayotda to'g'ri qo'llash zarurligi haqida mustaqil xulosa chiqaradi hamda o'zida ustozga hurmat, minnatdorlik, mas'uliyat, intilish va Vatanga foydali inson bo'lish kabi fazilatlarni shakllantirishga intiladi.

Mashg'ulotning borishi

TASHKILIY QISM (3 daqiqa)

O'quvchilar bilan iliq va ochiq muloqot asosida salomlashib, mashg'ulot uchun qulay psixologik muhit yaratiladi. Sinfning davomat holati aniqlanib, o'quvchilarning mashg'ulotga tayyorgarligi ko'zdan kechiriladi. O'quvchilar diqqati bugungi mavzuga yo'naltirilib, qisqa savol yoki hayotiy vaziyat orqali ularning fikrlashga bo'lgan qiziqishi uyg'otiladi. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinib, uning mazmuni va ahamiyati haqida qisqacha tushuncha beriladi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalash, bir-birining qarashlarini hurmat qilish va mavzu yuzasidan faol ishtirok etishga ruhlantiriladi.

II. KIRISH. MOTIVATSIYA QISMI (5 daqiqa)

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, bugungi suhbatimizni bir savol bilan boshlamoqchiman: "Insonning hayot yo'lini o'zgartira oladigan eng katta kuch nima deb o'ylaysiz?"

O'quvchilar: (O'quvchilarning javoblari tinglanadi.)

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, tarixga nazar tashlasak, dunyoga nomi ketgan buyuk olimlar, allomalar, mutafakkirlar, ijodkorlar va buyuk sarkardalar ham o'z-o'zidan buyuk shaxs bo'lib qolmaganini ko'ramiz. Ularning kamolotida ustoz va murabbiylarning o'zni beqiyos bo'lgan. Zero, har qanday buyuk insonning ortida unga bilim bergan, to'g'ri yo'l ko'rsatgan, xatolaridan saboq chiqarishga o'rgatgan va o'ziga ishongan ustoz siymosi turadi.

Bizning buyuk ajdodlarimiz - Imom Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi allomalarimizning ilmiy va ma'naviy kamolotida ustozlarning ta'limi, tarbiyasi va ibrati muhim o'rin egallagan.

Ular ilmni shunchaki o'rganibgina qolmay, o'zlaridan keyingi avlodlarga yetkazadigan buyuk meros yaratganlar.

Demak, ustoz shogirdiga faqat bilim bermaydi. U uning tafakkurini shakllantiradi, qalbini tarbiyalaydi, maqsadini yuksaltiradi, ezgulikka yo'naltiradi va o'z imkoniyatlariga ishonch uyg'otadi.

Hazrat Mir Alisher Navoiy ustozning ana shu ulug' xizmatini juda teran ifodalab:

“Haq yo'linda kim senga bir harf o'qitmish ranj ila,

Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.” deya yozganlar. Ya'ni inson uchun birgina harfni o'rgatish uchun ham zahmat chekkan ustozning haqqini qancha boylik bilan ham to'liq ado etib bo'lmaydi. Bu misralarda ustoz mehnatining naqadar ulug' va qadrlashga loyiq ekani ifodalangan.

Bir o'ylab ko'ring: bugun biz “buyuk olim”, “buyuk mutafakkir”, “buyuk sarkarda” deb e'zozlayotgan insonlarning barchasi bir vaqtlar kimningdir shogirdi bo'lgan. Ularning bugungi yuksakligi ortida ustozlarining zahmati, sabri, bergan bilimi, ishonchi va ezgu tilaklari mujassam.

Shunday ekan, ustozga ehtirom - faqat bir insonni hurmat qilish emas. Ustozga ehtirom - ilmga, ma'rifatga, tarbiyaga, ajdodlar merosiga va millat kelajagiga ehtiromdir. Chunki bugun ustoz qo'lida ta'lim olayotgan har bir o'quvchi ertaga olim, shifokor, muhandis, harbiy xizmatchi, tadbirkor, ijodkor yoki davlat arbobi bo'lishi mumkin. Uning kelajakdagi yutuqlarida esa bugungi ustozining mehnati va ta'limi albatta o'z aksini topadi.

Shuning uchun ham “Ustozga ehtirom - millatga ehtirom” deymiz. Chunki millatning kelajagi uning yosh avlodiga berilayotgan ta'lim va tarbiyaga bog'liq. Yosh avlodga bilim, ma'rifat va yuksak insoniy fazilatlarni beradigan inson esa - ustozdir.

Endi birgalikda o'ylab ko'raylik:

Nima uchun ustozga bo'lgan hurmatni millatning kelajagiga bo'lgan hurmat bilan tenglashtiramiz?

Ustozga bo'lgan munosabat bilan jamiyat va millat taraqqiyoti o'rtasida qanday bog'liqlik bor?

Marhamat, fikrlaringizni erkin bayon qiling.

O'quvchilar: (O'quvchilarning javoblari tinglanadi.)

O'qituvchi: Bugun biz ana shu savolga javob izlaymiz. Zero, millatning ertangi kuni bugungi yoshlarning qanday inson bo'lib voyaga yetishiga, yoshlarning kamoloti esa ularga ta'lim va tarbiya berayotgan ustozlarga bog'liq.

III. ASOSIY QISM. “USTOZ - MILLAT MA'NAVIYATINING BUNYODKORI” (20 daqiqa)

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, bugungi mashg'ulotimizni odatdagidek tayyor ta'rif yoki tabrik so'zlari bilan emas, bir savol bilan boshlamoqchiman.

Ustoz kim?

U faqat bizga fan o'rgatadigan, dars o'tadigan insonmi? Yoki ustozning hayotimizdagi vazifasi va o'rni bundan ancha kengroqmi

Bir lahza o'ylab ko'ring. Inson hayotida shunday ustoz bo'lishi mumkin: uning birgina gapi yillar o'tsa ham yoddan chiqmaydi, bergan maslahati muhim qaror qabul qilishga yordam beradi, bildirgan ishonchi esa o'quvchiga o'z kuchiga ishonishni o'rgatadi.

Xo'sh, sizningcha, ustoz kim?

O'quvchilarning fikrlari tinglanadi:

- Bilim beruvchi.
- Tarbiyachi.
- Yo'l ko'rsatuvchi.
- Maslahatchi.
- Ishonch beruvchi.
- Hayotga tayyorlovchi.
- O'zidan ibrat qoldiruvchi.

O'qituvchi: Juda yaxshi fikrlar. Demak, ustoz deganda, bilim beradigan, tarbiyalaydigan, yo'l ko'rsatadigan, qo'llab-quvvatlaydigan va shogirdining kelajagiga befarq bo'lmaydigan insonni tasavvur qilar ekanmiz. Aslida, ustozning eng katta mehnati shogirdining qalbi va tafakkurida qoldirgan izida namoyon bo'ladi. Ustoz bugun bir o'quvchiga bergan bilimi bilan ertaga butun jamiyatga xizmat qiladigan insonni tarbiyalashi mumkin. Shuning uchun ham ustozlik - oddiy kasb emas, katta mas'uliyat va sharafdir. Chunki ustoz qo'lida nafaqat bir o'quvchining, balki kelajak avlodning taqdiri turadi. Endi o'ylab ko'ring: agar ustozning mehnati bir avlodning kelajagiga ta'sir qilsa, unda ustozga bo'lgan munosabatimiz qanday bo'lishi kerak?

O'quvchilar: (O'quvchilarning qisqa javoblari tinglanadi.)

O'qituvchi: Demak, bugungi mavzuni shunchaki "ustozni hurmat qilish kerak" degan oddiy fikr doirasida emas, balki ancha chuqurroq ma'noda anglashimiz kerak. Chunki ustozga ehtirom - uning shaxsiga bo'lgan hurmatgina emas, u targ'ib qilayotgan ilm, ma'rifat, tarbiya va ezgu qadriyatlarga bo'lgan hurmatdir.

Ektranda mavzu paydo bo'ladi: **"USTOZGA EHTIROM - MILLATGA EHTIROM"**

"USTOZNING INSONIY QIYOFASI"

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, hozir sizlar bilan mavzuni biroz boshqacha usulda davom ettiramiz. Siz ustozingizni har kuni dars jarayonida ko'rasiz. Ammo o'ylab ko'rganmisiz: ustozingizning o'quvchilik davridagi orzulari qanday bo'lgan, unga kimlar ta'sir ko'rsatgan, bugungi kasbini tanlashiga nima sabab bo'lgan?

Hozir kichik bir o'yin o'ynaymiz. **O'yinning nomi "2 rost - 1 yolg'on"**. Men o'zim haqimda uchta fikr aytaman. Ularning ikkitasi haqiqat, bittasi esa yolg'on. Sizlar esa faqat taxmin qilib qolmay, qaysi fikr nega yolg'on deb o'ylayotganingizni asoslab berasizlar.

Ektranda:

1) Bolaligimda bugungi kasbimdan butunlay boshqa kasb egasi bo'lishni orzu qilganman.

2) Mening hayotimda qarashlarimga kuchli ta'sir ko'rsatgan ustozim bo'lgan.

3) O'quvchilik davrimda hech qachon xato qilmaganman va ustozlarimdan tanbeh eshitmaganman.

O'qituvchi: Xo'sh, sizningcha, qaysi biri yolg'on? Shoshilmasdan o'ylang. Balki javobni mening gaplarimdan, ohangimdan yoki o'zingiz haqidagi tasavvuringizdan topishga harakat qilasiz.

O'quvchilar: (O'quvchilar o'z taxminlarini bildiradilar va qisqacha izohlaydilar.)

O'qituvchi: Qiziqarli javoblar. Endi to'g'ri javobni aytaman...

(O'qituvchi o'ziga mos ravishda qaysi fikr yolg'onligini ochib beradi va 1 - 2 jumla bilan izohlaydi.)

Ko'rdingizmi, ba'zan biz har kuni ko'rib yurgan insonimiz haqida ham hamma narsani bilavermaymiz. Ustoz ham bir vaqtlar orzu qilgan, xato qilgan, izlangan, tanlov qilgan va hayotida o'ziga yo'l ko'rsatgan insonlardan saboq olgan oddiy bola bo'lgan.

Shuning uchun ustozni faqat dars beradigan inson sifatida emas, o'z hayotiy tajribasi, orzulari, izlanishlari va qadriyatlariga ega bo'lgan shaxs sifatida ko'rish muhim.

Endi shu fikrni o'zingizga ham tatbiq qilib ko'ring: bugun sizga ta'sir qilayotgan ustoz yoki boshqa bir inson kelajakdagi tanlovlaringizga qanday ta'sir qilishi mumkin?

Balki bugun sizga aytilgan birgina maslahat yoki bildirilgan birgina ishonch kelajakda hayotingizdagi muhim qarorlardan biriga sabab bo'lar. Shuning uchun ustozning har bir so'zi, har bir munosabati va har bir bergan imkoniyati ortida katta mas'uliyat bor.

O'qituvchi: Demak, bugungi mavzuni anglash uchun avvalo ustozni inson sifatida tushunishimiz, uning mehnati ortidagi mas'uliyatni his qilishimiz kerak. Chunki ustozga ehtirom uning darsiga emas, avvalo uning insoniy mehnati va millat kelajagiga qo'shayotgan hissasiga bo'lgan ehtiromdir.

KONTENT: "KELAJAK BILAN SUHBAT"

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, hozir sizlarga "Kelajak bilan suhbat" deb nomlangan ijtimoiy rolikni namoyish qilaman. Lekin bu videoni shunchaki tomosha qilib o'tirmasligingizni istayman. Undagi har bir tanlov va uning oqibatiga e'tibor bering.

Sizlarga asosiy savol:

"Nima uchun Dilshodning kelajagi uning ko'z o'ngida o'zgarib turadi?" Videodan keyin bu savolga shunchaki bir jumla bilan emas, o'z fikringiz va kuzatuvingiz asosida javob berishga harakat qiling.

VIDEO NAMOYISH ETILADI.

Video tugagach, o'qituvchi bir necha soniya sukut saqlaydi. O'quvchilarga videodagi mazmunni anglash uchun imkon beradi. So'ng:

O'qituvchi: Xo'sh, sizningcha, Dilshodning kelajagi nega o'zgarib turdi?

O'quvchilar: (O'quvchilarning javoblari tinglanadi)

- Har bir kichik tanlovi katta natijaga olib kelgani uchun.

- U ustozni tinglashni tanlagani uchun.

- Bugungi harakati ertangi kunini belgilagani uchun.

O'qituvchi: Ha, bularning barchasi to'g'ri. Ammo bu videoning ortida yana chuqurroq bir haqiqat bor.

Kelajak - uzoqdagi noma'lum bir kun emas. U bugun sinfda, ustoz gapirayotganda qabul qilayotgan kichik qarorlarimizdan boshlanadi. Har bir tanlov - tinglash yoki tinglamaslik, o'rganish yoki e'tiborsiz qolish - ertangi kunimizni asta-sekin shakllantiradi.

O'qituvchi: Aziz o'quvchilar, endi videodagi lahzaga birgalikda qaytamiz. Kelajakdagi Dilshod unga: "Sen darsni o'tkazib yuboryapsan", dedi. Keling, shu fikr ustida o'ylab ko'ramiz.

O'quvchi ustozning gapiga quloq solmasligi mumkinmi?

O'quvchilar: Ha.

O'qituvchi: O'quvchi xato qilishi va o'z xatosini takrorlashi mumkinmi?

O'quvchilar: Ha.

O'qituvchi: Tanbeh yoki tanqidni to'g'ri qabul qilmasligi, ustozning gapiga e'tiroz bildirishi mumkinmi?

O'quvchilar: Ha.

O'qituvchi: Demak, o'qituvchilik faoliyatida faqat bilim berish emas, balki turli xarakter va dunyoqarashga ega o'quvchilar bilan ishlash ham muhim o'rin tutadi.

O'qituvchi: Endi o'zingizni ustoz o'rniga qo'yib ko'ring. Tasavvur qiling, o'quvchingiz bir xil xatoni qayta-qayta takrorlamoqda. Siz unga bir necha marta tushuntiringiz, maslahat berdingiz, xatosini ko'rsatdingiz. Ammo hozircha natija sezilmadi.

Bunday vaziyatda siz nima qilgan bo'lardingiz?

O'quvchilar: (O'quvchilarning fikrlari tinglanadi.)

O'qituvchi: Sizlarning javoblaringizdan ko'rinib turibdiki, bunday vaziyatda sabr, tushuntirish va to'g'ri yondashuv muhim.

Lekin sabr faqat kutish degani emas. Pedagogik nuqtayi nazardan sabr - o'quvchining rivojlanish imkoniyatiga ishonish, unga xatosini anglash va tuzatish uchun imkon berish, zarur bo'lsa, yondashuvni o'zgartirib, yana bir bor tushuntirishga tayyor bo'lishdir.

Shuning uchun ustoz faoliyatida bilimning o'zi yetarli emas. Bilimga sabr, mas'uliyat, adolat va insoniylik hamroh bo'lishi kerak.

O'qituvchi: Endi yana bir savol: Nima uchun haqiqiy ustoz o'quvchining faqat bugungi xatosiga emas, uning ertangi imkoniyatiga ham qaraydi?

O'quvchilar: (O'quvchilarning javoblari tinglanadi.)

O'qituvchi: To'g'ri. Chunki bugungi xato insonning butun kelajagini belgilab bermaydi. O'quvchi hali rivojlanish, o'zgarish va o'z imkoniyatlarini namoyon etish bosqichida.

Ustozning muhim vazifalaridan biri - o'quvchining kuchli tomonlari va rivojlanish imkoniyatlarini ham aniqlashdir.

Shuning uchun ustoz o'quvchining buguni bilan ishlaydi, ammo uning ertangi kuni uchun mehnat qiladi. Balki o'qituvchining birgina to'g'ri so'zi, o'z vaqtida bergan ishonchi yoki ko'rsatgan e'tibori o'quvchining kelajakdagi tanloviga ta'sir

qilar. Videoning oxirida Dilshod ustoziga shunday deydi: “Rahmat, ustoz. Sizga rahmat aytish uchun yigirma yil kutgim kelmadi.” Balki bugun bizga ham o‘z ustozlarimizga rahmat aytish uchun yillar kutish shart emas.

UMUMLASHTIRISH (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Endi videoda ko‘rganlarimizni uchta tushuncha, ya’ni **fakt, fikr va xulosa** asosida umumlashtiramiz. **(3 daqiqa)**

Bu usul bizga ko‘rgan voqeani dalil asosida tahlil qilishga yordam beradi. 3-guruhga bo‘lingan holda bu jarayonni amalga oshiramiz.

1-guruh - FAKT

Videoda nimani aniq ko‘rdingiz? Faqat kuzatish mumkin bo‘lgan holatlarni ayting.

2-guruh - FIKR

Ko‘rganlaringiz sizda qanday fikr yoki munosabat uyg‘otdi? Nima uchun shunday fikrga keldingiz?

3-guruh - XULOSA

Videodagi fikrlarni birlashtirsak, ustozga ishonch, hurmat va uning jamiyatdagi o‘rni haqida qanday xulosaga kelishimiz mumkin?

(Guruhlarning javoblari tinglanadi.)

O‘qituvchi: Juda yaxshi. Demak, biz bugun faqat videolarni tomosha qilmadik. Biz voqealarni kuzatdik, dalillarni ajratdik, o‘z fikrimizni bildirdik va umumiy xulosaga keldik. Shuni unutmasligimiz kerak: fikr dalilga tayansa, xulosa yanada asosli bo‘ladi. Bugungi videolardan kelib chiqadigan asosiy xulosa esa shuki: ustozlik - tanlangan kasbning o‘zi emas, balki inson kelajagi uchun qabul qilingan mas’uliyat va unga sadoqat bilan xizmat qilishdir.

ESLATMA: *Qutida mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarni fikrlashga undaydigan metodlar qo‘llanilgan bo‘lib, o‘qituvchi vaqt taqsimotidan kelib chiqqan holda foydalanishi mumkin.*

“UZTOZIMGA 3 SO‘Z” yoki “USTOZIMGA TELEGRAMMA” (3 daqiqa)

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, endi mashg‘ulotimizning mazmunni umumlashtirish va shaxsiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan qismiga o‘tamiz. Bugun biz ustozlikning mas’uliyati, sabri, sadoqati va inson hayotidagi o‘rni haqida gaplashdik.

Endi tasavvur qiling: sizga bugun ko‘rgan ustozlarimizga yoki hayotingizda iz qoldirgan o‘z ustozingizga faqat uchta so‘z bilan minnatdorchilik bildirish imkoniyati berildi. Qaysi uchta so‘zni tanlagan bo‘lardingiz?

So‘zlaringiz oddiy bo‘lishi mumkin. Muhimi, ular samimiy va qalbingizdan chiqqan bo‘lsin.

O‘quvchilar: “Ustozimga telegramma” shaklida uchta so‘z yozadilar.

Misollar:

“Sabringiz uchun rahmat!”

“Ishonchingizni oqlayman!”

“Mehringizni qadrlayman!”

“Menga ishonganingiz uchun rahmat!”

“Sizdan o‘rgandim, ustoz!”

O‘qituvchi: Ba‘zan uchta so‘z juda kamdek tuyuladi. Ammo insonning qalbidan chiqqan samimiy so‘zlar uzun nutqlardan ham ta’sirli bo‘lishi mumkin. Chunki ustoz uchun eng katta mukofotlardan biri - shogirdining o‘z mehnatini qadrlayotganini his qilishidir.

“UZTOZLAR BOG‘I” (2 daqiqa)

O‘qituvchi: Bugun biz ustozga xos bo‘lgan ko‘plab fazilatlar haqida gaplashdik. Endi shu fikrlarimizni ramziy ravishda bitta “Ustozlar bog‘i”ga jamlaymiz. Mana bu daraxt - ustozlik timsoli. Uning har bir bargiga ustozga xos fazilatlarni yozib, daraxtimizni birgalikda bezaymiz.

O‘quvchilar: O‘quvchilar daraxtga quyidagi barglarni joylashtirishlari mumkin:

Bilim

Sabr

Mehr

Sadoqat

Mas’uliyat

Matonat

Ishonch

Ma’rifat

O‘qituvchi: Ko‘rib turganingizdek, daraxtning go‘zalligi bitta barg bilan emas, barcha barglarning uyg‘unligi bilan yaraladi. Ustozlik kasbi ham ana shunday: bilimning o‘zi yetarli emas. Unga sabr, mehr, adolat, mas’uliyat va sadoqat qo‘shilgandagina haqiqiy ustozlik namoyon bo‘ladi.

Bugungi ikki videodan keyin esa men daraxtimizdagi bir fazilatga alohida e’tibor qaratgan bo‘lardim - SADOQAT.

Chunki bilimli bo‘lish - muhim. Ammo o‘z kasbiga, shogirdiga va uning kelajagiga sodiq qolish - ustozlikning yuksak ma’naviy mezonlaridan biridir.

“JONLI MIKROFON” (3 daqiqa)

O‘qituvchi: Endi mashg‘ulotimizni sizlarning shaxsiy fikrlaringiz bilan davom ettiramiz. Har biringizdan uzoq fikr yoki katta nutq emas, faqat bitta samimiy jumla eshitmoqchiman.

Gapni quyidagi jumla bilan boshlang:

“Mening ustozim menga...”

O‘ylab ko‘ring: ustozingiz sizga faqat fan bo‘yicha emas, hayot uchun qanday saboq bergan?

2-3 nafar o‘quvchi javob beradi.

Namunalar:

“Mening ustozim menga o‘zimga ishonishni o‘rgatdi.”

“Mening ustozim menga mas’uliyatli bo‘lishni o‘rgatdi.”

“Mening ustozim menga xatolarimdan to‘g‘ri xulosa chiqarishni o‘rgatdi.”

“Mening ustozim menga qiyinchilikdan qo‘rqmaslikni o‘rgatdi.”

O‘qituvchi: Har bir insonning xotirasida biror ustozning so‘zi, nasihati yoki qilgan yaxshiligi qoladi. Balki yillar o‘tib, bugungi mashg‘ulotdagi ayrim tafsilotlar yodingizdan chiqishi mumkin. Ammo sizga ishongan, sizni qo‘llab-quvvatlagan yoki hayotingizga yaxshi ta‘sir ko‘rsatgan ustozning ta‘siri uzoq vaqt saqlanib qoladi.

Shuning uchun ustozga beriladigan eng katta rahmat - uning bergan bilimini qadrlash, ishonchini oqlash va kelajakda munosib inson bo‘lishdir.

XULOSA. “BUGUN MEN ANGLADIM...” (4 daqiqa)

Eklanda:

“BUGUN MEN ANGLADIM...”

O‘qituvchi: Aziz o‘quvchilar, mashg‘ulotimiz davomida ustozlik kasbining mazmuni, uning mas‘uliyati, sabr-toqati va kasbga sadoqat haqida fikr yuritdik. Endi mashg‘ulot davomida olgan bilim va taassurotlaringizni bir jumla orqali ifodalab ko‘ring.

Eklandagi “Bugun men angladim...” jumlasini o‘zingizning fikringiz bilan davom ettiring. Javobingiz aynan bugungi mashg‘ulotdan olgan eng muhim xulosangizni aks ettirsin.

O‘quvchilar: O‘quvchilar o‘z fikrlarini bildiradilar.

O‘qituvchi: Rahmat. Sizlarning fikrlaringizdan ko‘rinib turibdiki, ustozlikni faqat mashg‘ulot berish bilan izohlab bo‘lmaydi. Bu kasb insonning bilimini, dunyoqarashini va kelajagini shakllantirish bilan bog‘liq katta mas‘uliyatni talab qiladi.

Bugun biz video orqali ustozga bo‘lgan ehtiromning muhim jihatlarini ko‘rdik. Video orqali bugungi kichik tanlovlarimizning ertangi kelajagimizga ta‘sirini angladik.

Dilshodning har bir tanlovi - bu shunchaki harakat emas, balki kelajagini belgilaydigan ongli qaror edi. Ota-onalarning ustozga bildirgan ishonchi esa ana shu qarorlarni qo‘llab-quvvatlaydigan mas‘uliyatning amaliy ifodasi bo‘ldi.

Ustoz mehnatining natijasi har doim ham darhol ko‘zga tashlanmaydi. Ammo uning samarasi shogirdining bilimida, mustaqil fikrlashida, to‘g‘ri qaror qabul qilishida, erishgan yutuqlarida va jamiyatga foydali inson bo‘lib shakllanishida namoyon bo‘ladi.

Shuning uchun ustozga ko‘rsatiladigan hurmat faqat gul berish, tabriklash yoki yaxshi so‘z aytish bilangina cheklanmaydi. Ustoz mehnatini qadrlashning eng yuksak ko‘rinishi - uning bergan bilimini o‘zlashtirish, ishonchini oqlash, o‘z ustimizda ishlash va jamiyatga foydali inson bo‘lishga intilishdir.

Chunki ustoz bilim beradi - shogird uni hayotda qo‘llaydi.

Ustoz yo‘l ko‘rsatadi - shogird o‘z kelajagini bunyod etadi.

Ustoz tarbiya beradi - tarbiyalangan avlod millatning kelajagini belgilaydi.

Shunday ekan, bugungi mavzuning asosiy xulosasi bitta fikrda mujassam:

“USTOZGA EHTIROM - MILLATGA EHTIROM”

UYGA VAZIFA: (3 daqiqa)

O‘qituvchi: O‘quvchilarga oilada ota-ona va yaqinlari bilan “Ziyo tarqatuvchi kasb sohiblari” mavzusida suhbatlashish vazifasi beriladi.

Suhbat davomida quyidagi savollar asosida fikr almashish tavsiya etiladi:

1. ”Ziyo tarqatuvchi kasb sohiblari” deganda kimlarni tushunasiz?
2. Nima uchun ma’rifat targ‘ibotchisi hisoblangan ustozlar kabi kasb egalari jamiyat taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi?
3. Oilangizda yoki yaqinlaringiz orasida shunday kasb egasi bormi?
4. Ularning mehnati inson va jamiyat hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5. Mashg‘ulot davomida namoyish etilgan videoroliklar ota-onalarning telegram guruhiga yuboriladi va farzandlari bilan uyda muhokama qilishlari tavsiya etiladi.

Siz kelajakda qaysi kasb orqali odamlarga foyda keltirishni istaysiz?

Vazifa: oiladagi suhbatdan eng muhim deb hisoblagan 2–3 ta fikrni yozib kelish va keyingi mashg‘ulotda sinfdoshlar bilan baham ko‘rish.

O‘qituvchi: Keyingi mashg‘ulotda oilangizda bildirilgan fikrlarni birgalikda muhokama qilamiz. Bugun siz bilan “Kelajak bilan suhbat” kontentini ota-onangiz bilan birgalikda tomosha qiling. Balki ota-onangiz yoki yaqinlaringizning birgina fikri sizning kelajak haqidagi qarashingizni ham o‘zgartirar. Bu haqda keyingi mashg‘ulotda gaplashamiz.

E’tiboringiz uchun rahmat!